



## KO'KALAMZORLASHTIRISHDA ASOSIY DARAXT-BUTA TURLARINING BIOEKOLOGIYASI VA AHAMIYATI

Atamuratov Muxammed Muratbay uli

Ilmiy rahbar: Baltaniyazov Jaqsibay Sarsenbaevich, q.x.ff.d.

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus shahri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Nukus shahrini ko'kalamzorlashtirishda asosiy daraxt-buta turlari tanlash va ularning ahamiyati haqida so'z boradi. Qoraqalpog'istonning sug'oriladigan erlarida manzarali daraxt va butalarni tanlashdan avval joyning tabiiy va geografik sharoitlarini e'tiborga olishimiz lozim. Sababi har bir hududning sharoitlari har xildir. Bunday erlarda manzarali daraxtlarni tanlash chuqur bilim va tajriybalarni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** ko'kalamzorlashtirish, daraxt turlari, fenologik kuzatish, introduksiya, ahamiyati.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается выбор основных видов деревьев и кустарников для озеленения города Нукуса и их значение. При выборе декоративных деревьев и кустарников на орошаемых землях Каракалпакстана необходимо учитывать природные и географические условия местности. Это обусловлено тем, что условия в каждом регионе различны. Подбор декоративных деревьев для таких территорий требует глубоких знаний и опыта.

**Ключевые слова:** озеленение, виды деревьев, фенологические наблюдения, интродукция, значение.

**Abstract:** This article examines the selection of the main types of trees and shrubs for the greening of the city of Nukus and their significance. When choosing ornamental trees and shrubs on irrigated lands of Karakalpakstan, it is necessary to take into account the natural and geographical conditions of the area. This is due to the fact that the conditions in each region are different. The selection of decorative trees for such areas requires deep knowledge and experience.

**Keywords:** greening, tree species, phenological observations, introduction, meaning.

Qoraqalpog'istonning sug'oriladigan erlarida manzarali daraxt va butalarni tanlashdan avval joyning tabiiy va geografik sharoitlarini e'tiborga olishimiz lozim. Sababi har bir hududning sharoitlari har xildir. Bunday erlarda manzarali daraxtlarni tanlash chuqur bilim va tajriybalarni talab qiladi.

Ko'kalamzorlashtirish maqsadidida introduktsiyalangan yangi o'simlik ko'chatlarini to'g'ri tanlab olish uchun o'simliklarning manzaralik sifatlarini bilish bilan bir qatorda ularning biologik hususiyatlarini tashqi muhit sharoitlariga bo'lgan talabini e'tiborga olish ham juda muhimdir. Chunki har xil daraxtlar harorat, yorug'liq, havoning namligiga ham talabchanligi har xildir. O'simliklar o'zining individual rivojlanish jarayonida bir qator davrlarni o'taydi - yuvenildan etuklik davrgacha. Bu davrlarda bir o'simlik shox-shabbasining har xil kattalik, shakli, o'sishning tezligi bilan xarakterlanadi [7].



Bular qaysi turni qaysi iqlimda o‘stirishni va ulardan qanday foydalanishni aniqlashga imkon beradi.

Nukus shahri sharoitiga introduktsiyalangan daraxt va butalar xayotini va ulardagi fasliy hodisalarni o‘rganish maqsadida quyidagi kuzatishlar olib borildi [2, 4, 5]:

- barg kurtak va gul kurtaklarning bo‘rtishi;
- daraxtlarning gullash davri;
- daraxtlarning meva berish yoshi;
- meva berishning qaytalanishi;
- meva va urug‘larning pishib etilish davri;
- mevasining ranglari;

Olingan natijalar maxsus jadvallarda qayd etildi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Daraxt-butalarda yuz beradigan fasliy hodisa muddatlari

| Daraxt va buta turlari  | Daraxtlarning meva berish yoshi | Meva berishning qaytalanishi | Gullash davri (oylar) | Pishib, etilish davrlari | etilgan meva rangi |
|-------------------------|---------------------------------|------------------------------|-----------------------|--------------------------|--------------------|
| Butali amorfa           | 3-4                             | har yili                     | May-iyun              | Avgust-sentyabr          | Jigar rang         |
| Mayda bargli qayrag‘och | 8-10                            | xar yili                     | Aprel                 | Aprel-may                | Kul rang           |
| Oq akatsiya             | 3-4                             | har yili                     | Aprel-may             | Avgust-sentyabr          | Qoram tir          |
| O‘tkir bargli zarangi   | 5-10                            | xar yili                     | May-iyun              | Sentyabr-oktyabr         | Sariq-qizil        |
| Yashil shumtol          | 6-8                             | 1-2                          | Aprel-may             | Sentyabr-oktyabr         | Sariq, qizil       |
| Qora terak              | 8-10                            | 1-2                          | Aprel                 | May-iyun                 | Yashil             |
| Oq terak                | 8-10                            | 1-2                          | Aprel-may             | May-iyun                 | Yashil             |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrining ko‘pgina sinov maydonlari va shahar inshootlari atrofini ko‘z atlatish maboynida keyingi 10-yil ichida ko‘pgina introduktsiyalangan manzarali daraxt va buta turlari aniqlandi (2-jadval) [10, 12].

### 2-jadval

#### Nukus shahridagi introduktsiya qilingan daraxt turlarini aniqlash

| Daraxt turlari | Daraxt bo‘yi m, | Tuproqqa talabchanligi | Manzaraviyligi | Vatani   | Daraxt holati |
|----------------|-----------------|------------------------|----------------|----------|---------------|
| <i>1</i>       | <i>2</i>        | <i>3</i>               | <i>4</i>       | <i>5</i> | <i>6</i>      |
| Virgin         | 15-30           | Quruq                  | Shox-          | Shimol   | Qoniq         |



|                |                |  |   |                              |            |
|----------------|----------------|--|---|------------------------------|------------|
| archasi        | m, gacha       | toshli, qumli va botqoq hamda nam sho'rtob tuproqlarda o'saveradi.                             | shabbasi tor tuxumsimon yoki yoyiq. Tanasining tubidan shoxlaydi, | iy Amerika                   | arli       |
| Sharq biotasi  | 10 m, gacha    | Har xil tuproqda o'saveradi. Lekin ohakli qumloq tuproqlarda yaxshi o'sadi.                    | Shox-shabbasi piramida shaklida.                                  | Shimol iy Xitoyning tog'lari | Qoniq arli |
| Oq akatsiya    | 18-25 m, gacha | Quruq, hatto dasht va yarim cho'l mintaqalar ning nisbatan sho'rlangan tuproqlarda o'saveradi. | Shox-shabbasi piramidasimon yoki sharsimon shaklda.               | Shimol iy Amerika            | Qoniq arli |
| Yashil shumtol | 10-15m, gacha  | Tuproqning unumdorligiga kamroq talabchan, sho'rlangan tuproqlarga chidamli.                   | Shox-shabbasi keng piramidasimon.                                 | Shimol iy Amerika            | Yaxshi     |
| Go'zal katalpa | 15-20m, gacha  | Nisbatan kuchsiz qumoq tuproqlarda va quruq loyli tuproqlarda ham o'sadi.                      | Shox-shabbasi piramida shaklida yoki keng. Tanasi tik o'sadi.     | Shimol iy Amerika            | Yaxshi     |
| Ligistrum      | 3-4m, gacha    | Nisbatan kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda o'sadi.   | Jonli devorlar ekishda qullaniladi.                               | Yaponiya                     | Yaxshi     |
| Butali amorfa  | 3-6m, gacha    | Tuproqni tanlamaydi. Sho'r tuproqda ham o'sadi.  | Shox-shabbalari egilib o'sadigan buta. Jonli devorlar             | Shimol iy Amerika            | Qoniq arli |

|                |                   |  |  |                 |        |
|----------------|-------------------|--|--|-----------------|--------|
|                |                   | Qumli tuproqlarda yaxshiroq o'sadi.  | ekishda qullaniladi.   |                 |        |
| Majnun-<br>tol | 10-<br>15m, gacha | Tuproqning unumdorligiga kamroq talabchan, sho'rlangan tuproqlarga chidamli. | Shox-shabballari halqasimon, egilib o'sadigan daraxt.  | Eron            | Yaxshi |
| Yapon soforasi | 15m, gacha        | Tuproq tanlamaydi, tuproqning quruqligiga, sho'rligiga ham chidamli.         | To'q-yashil, qalin shox-shabballari va uyg'un barglari bilan, ayniqsa, gullash davrida juda manzaralidir | Xitoy, Yaponiya | Yaxshi |

Manzarali, himoya o'rmon daraxtlari haqidagi ilmiy manbalar asosida to'plangan ma'lumotlar va amalda tajriba maydonlaridan to'plangan yuqorida keltirilgan jadvaldagi ma'lumotlarga, joyning iqlim va tuproq sharoitlariga mos holda va ko'kalamzorlashtirishda eng yaxshi natija beradiganlarining ekologik holatlari tahlillariga asoslanib Nukus shahri sharoitida tuproqlarning holatiga bog'liq holda quyidagi daraxtlarni ko'paytirish tavsiya etiladi:

**Nukus shahrining sho'rlangan erlarda:** Virgin archasi, sharq biotasi, yaponiya tuxumagi, yashil shumtol, butali amorfa, majnuntol, oq akatsiya, ajoyib katalpa kabi daraxtlardir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamalova N. B., Baltaniyazov J. S. ATROF-MUHITNI VA AVTOMOBIL YO'L BO'YLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH USULLARI BILAN HIMOYA QILISH //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 27. – C. 85-88.

2. Baltaniyazov J. S., Kamalova N. B. Growing and developing of maple (Acer) tree in Karakalpakstan //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 609-611.



3. Sherniyazov K., Atamuratova K., Baltaniyazov J. Types of vegetative propagation of ornamental tree-shrub plants in landscaping //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 1068-1070.

4. Baltaniyazov J., Madraimov R. JASÍL QAPLAMA PAYDA ETIWDE SEKSEWIL ÓSIMLIGINÍŃ ÁHMİYETI HÁM KÓBEYTIW USÍLLARÍ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 10 Part 3. – С. 133-136.

5. Baltaniyazov J. S., Kamalova N. B. Growing and cutting of dolls pharmacy //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономического обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 607-608.

6. Қайимов А. Қ., Ҳамроев Х. Ф., Балтаниязов Ж. С. Қорақалпоғистон республикаси шароитида кўкаламзорлаштириш учун танланган япроқбаргли дарахт турларининг ўсиш кўрсаткичлари //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 208-212.

7. Baltaniyazov J., Madraimov R. OROL DENGIZI QURIGAN TUBIDA YASHIL QOPLAMALARNI PARVARISHLASH AGROTEKNIKASI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 156-158.

8. Baltaniyazov J. S., Kamalova N. B. Environmental and decorative properties linden leaved (*Tilia cordata*) under Karakalpakstan //СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ. – 2017. – С. 820-821.

10. Baltanyazov J. S., Khojanazarova A. J. REGISTRATION, AND STORAGE DIGGING PLANTING MATERIAL //АГРОЛЕСОМЕЛИОРАЦИЯ И ЗАЩИТНОЕ ЛЕСОРАЗВЕДЕНИЕ. – 2016. – С. 993.

11. Балтаниязов Ж. С. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОННИНГ ШАҲАР ВА ТУМАН МАРКАЗЛАРИНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШ ВА ҲИМОЯ ДАРАХТЗОРЛАРИ БАРПО ЭТИШ ҲОЛАТИ //МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2020. – С. 452-456.

12. Kamalova N. B., Baltaniyazov J. S. NUKUS SHAHRI AVTOMOBIL YO'L BO'YLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH UCHUN DARAXT-BUTA TURLARINI TANLASH //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 27. – С. 81-84.

13. Qayumov A., Boltaniyozov J. S. Dust-Holding Properties Of Wood And Shrub Species In The Conditions Of The Republic Of Karakalpakstan //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 170-174.